QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

https://doi.org/10.70728/c.series.pedm.v08.i10.006

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA IFODA VA MAZMUN PLANLARINING ÖZARO MUNOSABATI (ÖZBEK TILI MISOLIDA)

Jumaqulova Şaxnoza Qudrat qizi,
Doktorant, Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada özbek tili frazeologik birliklarining ifoda plani (tarkib, söz tartibi, grammatik şakl, tovuş tuzilişi) va mazmun plani (yaxlit ma’no, obraz, baho, uslubiy böyoq) örtasidagi munosabat tahlil qilinadi. Belgining asimmetrik dualizmi nazariyasi asosida ikki plan munosabatining olti turi ajratiladi: izomorfizm, köp ma’nolilik, sinonimiya, variantlik, antonimiya va erkin birikma bilan omonimiya. Şuningdek, ifoda planining turğunligi mazmun planini saqlaş vositasi ekani körsatiladi.

Kalit sözlar: frazeologik birlik, ifoda plani, mazmun plani, asimmetrik dualizm, içki şakl, frazeologik variant, frazeologik sinonimiya, köp ma’nolilik.

СООТНОШЕНИЕ ПЛАНА ВЫРАЖЕНИЯ И ПЛАНА СОДЕРЖАНИЯ ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация: В статье анализируется соотношение плана выражения (компонентный состав, порядок слов, грамматическая форма, звуковая организация) и плана содержания (целостное значение, образ, оценка, стилистическая окраска) фразеологических единиц узбекского языка. На основе теории асимметричного дуализма знака выделены шесть типов соотношения планов: изоморфизм, многозначность, синонимия, вариантность, антонимия и омонимия со свободным словосочетанием. Показано, что устойчивость плана выражения служит средством сохранения плана содержания.

Ключевые слова: фразеологическая единица, план выражения, план содержания, асимметричный дуализм, внутренняя форма, фразеологический вариант, фразеологическая синонимия, многозначность.

THE RELATIONSHIP BETWEEN THE EXPRESSION PLAN AND THE CONTENT PLAN IN PHRASEOLOGICAL UNITS (BASED ON UZBEK)

Abstract: The article analyses the relationship between the expression plan (component composition, word order, grammatical form, sound organisation) and the content plan (holistic meaning, image, evaluation, stylistic colouring) of Uzbek phraseological units. Drawing on the theory of the asymmetric dualism of the linguistic sign, six types of relationship between the plans are distinguished: isomorphism, polysemy, synonymy, variation, antonymy and

homonymy with free word combinations. It is shown that the stability of the expression plan serves as a means of preserving the content plan.

Keywords: phraseological unit, expression plan, content plan, asymmetric dualism, inner form, phraseological variant, phraseological synonymy, polysemy.

KIRIŞ

Har qanday til belgisi ikki tomonga ega: u moddiy şakl orqali ifodalanadi va muayyan mazmunni taşiydi. Frazeologik birlikda bu ikki tomonning munosabati ayniqsa murakkab. Uning ifoda plani bir neçta sözdan iborat bölib, sintaktik birikmaga öxşaydi. Mazmun plani esa bitta sözning ma’nosiga yaqin yaxlit tuşunçani ifodalaydi. Masalan, “köz oçib yumgunça” birligi şaklan tört qismli ravişdoş qurilmasi, mazmunan esa “juda tez” degan yagona ma’nodir. Özbek frazeologiyasida frazeologizmlarning ma’nosi, tuzilişi va uslubiy xususiyatlari batafsil tavsiflangan [1]. Biroq ifoda va mazmun planlari örtasidagi munosabat yaxlit tizim sifatida kam tahlil qilingan. Holbuki frazeologik sinonimiya, köp ma’nolilik va variantlikni faqat ikki plan munosabati orqali aniq farqlaş mumkin. Agglyutinativ tilda esa ifoda planidagi kiçik grammatik özgariş ham mazmunni yöqotişi mumkin, buni luğat tuziş va til öqitişda hisobga oliş zarur.

Tadqiqotning maqsadi özbek tili frazeologik birliklarida ifoda va mazmun planlari munosabatining asosiy turlarini aniqlaş va bu munosabatning frazeologizm turğunligidagi örnini körsatişdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til belgisining ikki tomonlamaligi haqidagi ta’limot F.de Sossyurga borib taqaladi. U belgini ifodalovçi va ifodalanmiş birligi sifatida talqin qilgan [7]. L.Yelmslev esa bu tomonlarni ifoda plani va mazmun plani deb atab, ularning har biri öz şakli va substansiyasiga ega ekanini asoslagan [2]. S.Karsevskiy belgining asimmetrik dualizmi ğoyasini ilgari surgan. Unga köra, belgining ifodalovçi va ifodalanmiş tomonlari doimo bir-biriga töliq mos kelmaydi: bir şakl bir neça mazmunga, bir mazmun esa bir neça şaklga ega bölişi mumkin [4]. Bu ğoya frazeologik köp ma’nolilik va sinonimiyani tuşuntirişda nazariy asos bölib xizmat qiladi.

Terminologiya nazariyasida keltirilgan G.Galinski va G.Budinning fikri ifoda va mazmun planlari örtasidagi nomutanosiblikni yaqqol körsatadi: “These concept dynamics are not reflected and represented by the terms, which as linguistic symbols – show much more stability than the concepts for which they stand” [5, P.90] (tarjima: tuşunçalardagi bu özgarişlar terminlarda aks etmaydi, çunki terminlar til belgisi sifatida ular ifodalaydigan tuşunçalardan ança barqarordir). Bu fikr terminlar haqida aytilgan bölsa-da, bizningça, frazeologizmlarga ham töliq taalluqli. Frazeologizmda ham ifoda plani mazmun planidan barqarorroq böladi. Şu sababli unda hozirgi tilda mustaqil qöllanmaydigan sözlar va eskirgan grammatik şakllar saqlanib qoladi.

Frazeologizmning mazmun plani tarkibiy qismlar ma’nosidan bevosita kelib çiqmaydi: “Idioms are non-compositional expressions whose figurative meanings deviate from the meanings of the constituent words (literal meanings)” [9, P.18554] (tarjima: idiomalar nokompozitsion ifodalar bölib, ularning köçma ma’nosi tarkibiy sözlarning töğri ma’nosidan farq qiladi). Bu ta’rif ikki plan örtasidagi asosiy asimmetriyani oçib beradi: ifoda planida sözlar

mustaqil ma’no taşiydi, mazmun planida esa ular yagona ma’noga birlaşadi. Biroq bu farq barça frazeologizmlarda bir xil darajada emas. Ba’zi birliklarda ifoda planidagi obraz mazmunni qisman oçib beradi, boşqalarida esa bu boğliqlik butunlay yöqolgan.

Ifoda planining tarkibi L.Noriyega-Santyanyes va G.Korpas Pastor işida aniq körsatilgan. Ularga köra, idiomalar “characterised by their polysemy and fixed or semi-fixed structure (having phonic, morphological, syntactic, and lexico-semantic constraints), which conveys an idiomatic meaning” [6, P.131] (tarjima: köp ma’noliligi hamda fonetik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik çeklovlarga ega turğun yoki yarim turğun tuzilişi bilan ajralib turadi va idiomatik ma’no ifodalaydi). Bu ta’rifda ikki plan boğlab tavsiflanadi: ifoda planidagi çeklovlar mazmun planidagi idiomatik ma’noni saqlaşga xizmat qiladi, köp ma’nolilikning tilga olinişi esa asimmetrik dualizmni tasdiqlaydi.

J.Sinkler frazeologizmni sözlarning birgalikda tanlanişi sifatida ta’riflab, bu tanlov “to produce a specific meaning or effect in speech or writing” [3, P.261] amalga oşişini ta’kidlaydi (tarjima: nutq yoki yozuvda muayyan ma’no yoki ta’sir hosil qiliş uçun). Bu ta’rifda mazmun planining ikki qatlami ajratiladi: ma’no (*meaning*) va ta’sir (*effect*). Bizningça, ikkinçi qatlam frazeologizmning obrazi, bahosi va uslubiy böyoğini qamrab oladi. Aynan şu qatlam frazeologizmni uning söz bilan berilgan sinonimidan ajratib turadi.

Ifoda planining özgaruvçanligi haqida F.Kalaş va P.Liptak şunday yozadi: “From both morphological and syntactic perspectives, phraseological units can vary significantly” [3, P.259] (tarjima: frazeologik birliklar morfologik va sintaktik jihatdan sezilarli darajada farqlanişi mumkin). Mazmun planining milliy-madaniy qatlami esa A.S.Tarakov va hammualliflari işida ta’kidlanadi: “It is not enough to transfer complete meaning of the idioms in the translation; a translator should try to convey national spirit of the fixed phrase” [8, P.371] (tarjima: idiomaning ma’nosini töliq yetkazişning özi yetarli emas, tarjimon turğun iboraning milliy ruhini ham yetkazişga harakat qilişi kerak). Bu fikr mazmun plani faqat ma’nodan iborat emasligini, unga milliy obraz va madaniy tajriba ham kirişini körsatadi.

MATERIAL VA METODLAR

Izohli frazeologik luğat [1] asosida tanlangan 18 ta özbek frazeologizmi komponent, transformatsion, içki şakl tahlili va qiyosiy usullar bilan örganildi. Ifoda planida tarkibiy qismlar, söz tartibi, grammatik şakl va tovuş tuzilişi, mazmun planida esa yaxlit ma’no, obraz, baho va uslubiy böyoq hisobga olindi.

NATIJALAR

Tahlil ifoda va mazmun planlari örtasida olti turdagi munosabatni aniqlaş imkonini berdi (1-jadval).

1-jadval. Frazeologizmlarda ifoda va mazmun planlari munosabati turlari

№	Munosabat turi	Mohiyati	Misol
1	Izomorfizm	Bir şakl – bir ma’no	*köz oçib yumgunça* — “juda tez”
2	Köp ma’nolilik	Bir şakl – bir neça ma’no	*boşi qotmoq*: 1) nima qilişni bilmay qolmoq; 2) aqliy çarçoqdan fikrlay olmay qolmoq
3	Sinonimiya	Turli şakl – bir ma’no	*közini böyamoq* va *boşini aylantirmoq* — “aldamoq”

№	Munosabat turi	Mohiyati	Misol
4	Variantlik	Şakl qisman özgaradi – ma’no saqlanadi	*boşi osmonga (kökka) yetmoq*
5	Antonimiya	Bitta komponent almaşadi – ma’no qarama-qarşi böladi	*köngli oq* (beğaraz) ↔ *köngli qora* (ğarazli)
6	Erkin birikma bilan omonimiya	Bir şakl – töğri va köçma ma’no	*koptokni yerga urdi* ↔ *uni hamma oldida yerga urdi* (kamsitdi)

Variantlik va antonimiya ifoda planidagi özgarişning mazmunga ta’siri har xil bölişini körsatadi. Variantlikda bir komponentning ma’nodoş söz bilan almaşişi (“osmon” – “kök”) mazmunni özgartirmaydi. Antonimiyada esa bir komponentning qarama-qarşi ma’noli söz bilan almaşişi (“oq” – “qora”) bahoni teskarisiga aylantiradi. Demak, ifoda planidagi özgarişning mazmunga ta’siri almaşayotgan komponentlarning özaro semantik munosabatiga boğliq.

Ifoda planidagi grammatik çeklovlar. Frazeologizmning ayrim grammatik şakllari mazmunni yöqotadi. “Oğzi quloğida” birligidagi “quloq” sözi köplik şaklida kelsa (*oğzi quloqlarida*), birlik “juda xursand” ma’nosini yöqotadi. “Tişini tişiga qöymoq” birligida esa egalik qöşimçasi şaxsga qarab özgarişi mumkin (*tişimni tişimga qöydim*), lekin tuşirib qoldirilsa (*tiş tişga qöymoq*), frazeologik ma’no saqlanmaydi. Demak, ayrim grammatik belgilar mazmun planining taşuvçisiga aylangan.

Ifoda planida saqlanib qolgan eskirgan komponentlar. “Ötakasi yorilmoq” (haddan taşqari qörqmoq) birligidagi “ötaka” va “yer bilan yakson qilmoq” (butunlay vayron qilmoq) birligidagi “yakson” sözlari hozirgi tilda mustaqil qöllanmaydi. Ular faqat frazeologizm tarkibida yaşaydi. Bu holat ifoda planining mazmun planidan barqarorroq ekanini tasdiqlaydi: komponentning mustaqil ma’nosi unutilgan, ammo frazeologizmning yaxlit mazmuni saqlanib qolgan.

Tovuş tuzilişining örni. “Olma piş, oğzimga tuş” (harakat qilmay natija kutmoq) birligida qofiya (*piş – tuş*), “aççiq-çuçukni totmoq” (hayotning oğir-yengilini körmoq) birligida esa juft söz qatnaşadi. Bunday tovuş uyğunligi birlikning esda qolişi va tayyor holda qayta tiklanişiga, ya’ni mazmun planining avloddan avlodga yetişiga xizmat qiladi.

Içki şaklning şaffofligi. Ifoda va mazmun planlari örtasidagi köprik vazifasini birlikning içki şakli, ya’ni obrazi bajaradi. “Tişini tişiga qöymoq” birligida obraz (tişni qisiş) va ma’no (oğriq yoki qiyinçilikka çidamoq) örtasidagi boğliqlik oson anglaşiladi. “Ötakasi yorilmoq” birligida esa “ötaka” sözining ma’nosi unutilgani uçun içki şakl qisman xiralaşgan. Şunga köra birliklarni şaffof, qisman şaffof va xira turlarga ajratiş mumkin.

MUHOKAMA

Natijalar frazeologizmda ifoda va mazmun planlari bir-biriga mexanik tarzda mos kelmasligini körsatadi. Bu S.Karsevskiyning asimmetrik dualizm ğoyasiga [4] töliq mos keladi. Frazeologizmning özига xosligi şundaki, uning ifoda plani mustaqil ma’noli bir neça leksemadan taşkil topadi. Şu sababli u ikki marta asimmetrikdir: birinçidan, uning yaxlit şakli va yaxlit ma’nosi örtasida; ikkinçidan, tarkibiy qismlarning töğri ma’nolari va birlikning köçma ma’nosi örtasida [9, P.18554].

Ifoda planining barqarorligi masalasida tahlil Galinski va Budin fikrini [5, P.90] frazeologik material bilan tasdiqlaydi. “Ötaka” va “yakson” kabi komponentlarning saqlanib qolişi belgi şaklining mazmunga nisbatan barqarorroq ekanini körsatadi. Şu bilan birga frazeologizmda bu barqarorlik nisbiy. Variantlar mavjudligi va frazeologizmlarning morfologik özgaruvçanligi [3, P.259] ifoda planining qat’iy emasligini, lekin uning özgarişlari mazmunni saqlaydigan doirada çeklanganini anglatadi. Bu xulosa ifoda planidagi çeklovlar idiomatik ma’noni saqlaşga xizmat qiladi, degan qaraşga [6, P.131] mos keladi.

Mazmun plani faqat ma’nodan iborat emas: “közini böyamoq” va “boşini aylantirmoq” bir xil ma’noli, lekin birinçisida aldaş körişga, ikkinçisida fikrga ta’sir qiliş orqali tasavvur qilinadi. Sinkler ta’rifidagi ma’no va ta’sir farqi [3, P.261] aynan şu holatni tuşuntiradi: sinonim frazeologizmlar ma’no jihatidan emas, ta’sir jihatidan farqlanadi.

Natijalarga köra, luğat maqolasida frazeologizmning qaysi şakliy özgarişlarga yöl qöyişi va qaysilariga yöl qöymasligi körsatilişi lozim. Munosabat turlarining miqdoriy taqsimotini kengroq materialda aniqlaş keyingi vazifadir.

XULOSA

Tahlil natijalari özbek tili frazeologik birliklarida ifoda va mazmun planlari özaro asimmetrik, ammo uzviy boğliq ekanini körsatdi. Bu asimmetriya olti turdagi munosabatda namoyon böladi: izomorfizm, köp ma’nolilik, sinonimiya, variantlik, antonimiya va erkin birikma bilan omonimiya. Ifoda planidagi özgarişning mazmunga ta’siri almaşayotgan komponentlarning semantik munosabatiga boğliq: ma’nodoş komponentlar variant hosil qiladi, qarama-qarşi ma’noli komponentlar esa antonim birlikni yuzaga keltiradi. Ifoda planining grammatik va fonetik tuzilişi, jumladan, egalik qöşimçasi, son şakli, qofiya va juft sözlar mazmunni saqlaş va qayta tiklaş vositasi bölib xizmat qiladi. Eskirgan komponentlarning saqlanib qolişi esa ifoda planining mazmun planidan barqarorroq ekanini tasdiqlaydi. Ikki planni boğlovçi içki şaklning şaffofligi böyiça frazeologizmlarni tasniflaş ularning tarixiy taraqqiyotini va luğatda izohlanişini örganişga yangi imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Rahmatullayev Ş. Özbek tilining izohli frazeologik luğati. – Toşkent : Öqituvçi, 1978.
2. Hjelmslev L. Prolegomena to a theory of language / L. Hjelmslev ; transl. by F. J. Whitfield. – Madison : University of Wisconsin Press, 1961.
3. Kalaš F. AI and the translation of idioms – challenges, success, and a corpus perspective / F. Kalaš, P. Lipták // Jazykovedný časopis. – 2025. – Vol. 76, No. 1. – P. 258-267.
4. Karcevskij S. Du dualisme asymétrique du signe linguistique / S. Karcevskij // Travaux du Cercle Linguistique de Prague. – 1929. – Vol. 1. – P. 88-93.
5. Mikelionienė J. The artificial intelligence-related superordinate concepts and terminological variation in the English and Ukrainian languages / J. Mikelionienė, A. Ponomarevskyi // Slavistica Vilnensis. – 2024. – Vol. 69, No. 1. – P. 87-102.
6. Noriega-Santiáñez L. Measuring creative phraseology in literature: Machine translation systems versus large language models / L. Noriega-Santiáñez, G. Corpas Pastor // Yearbook of Phraseology. – 2025. – Vol. 16. – P. 125-152.

7. Saussure F. de. Cours de linguistique générale / F. de Saussure. – Paris : Payot, 1916.
8. Tarakov A. S. Translation problems of phraseological units: On the basis of M. Auezov’s novel “The Way of Abai” / A. S. Tarakov, I. K. Azimbayeva, Zh. T. Abdullayeva // Mediterranean Journal of Social Sciences. – 2015. – Vol. 6, No. 4 S2. – P. 370-374.
9. Translate meanings, not just words: IdiomKB’s role in optimizing idiomatic translation with language models / S. Li, J. Chen, S. Yuan [et al.] // Proceedings of the AAAI Conference on Artificial Intelligence. – 2024. – Vol. 38. – P. 18554-18563.